



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 368 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari .....	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri .....	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari .....	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life .....	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiriy</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari .....	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari .....	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish .....	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari .....	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash .....	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi .....	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений .....	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения .....	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Azimova Maftuna Azizbekovna

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslari jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida xorijiy tilni o'qitish faqat grammatik bilimlarni egallash bilan chegaralanmay, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirishni ham talab etadi. Tadqiqot davomida madaniyatlararo kompetensiyaning tarkibiy qismlari, uni rivojlantirishda kommunikativ yondashuv, autentik materiallardan foydalanish, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rne yoritildi. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish jarayonida madaniyatlararo yondashuvni joriy etishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** madaniyatlararo kompetensiya, ingliz tili ta'limi, kommunikativ yondashuv, pedagogik shart-sharoitlar, oliy ta'lim, autentik materiallar, interfaol metodlar, xorijiy til metodikasi, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot.

**Abstract:** This article scientifically and theoretically analyzes the pedagogical conditions for developing intercultural competence in the process of teaching English at higher educational institutions. In the modern education system, foreign language teaching is not limited to mastering grammatical knowledge only, but also requires the development of skills for effective communication with representatives of different cultures. During the research, the structural components of intercultural competence, the role of the communicative approach, the use of authentic materials, interactive methods, and information and communication technologies in its development were highlighted. In addition, current issues of implementing an intercultural approach in the process of teaching English in the higher education system of Uzbekistan were examined.

**Key words:** intercultural competence, English language education, communicative approach, pedagogical conditions, higher education, authentic materials, interactive methods, foreign language teaching methodology, communicative competence, intercultural communication.

**Аннотация:** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются педагогические условия развития межкультурной компетенции в процессе преподавания английского языка в высших учебных заведениях. В современной системе образования обучение иностранному языку не ограничивается только освоением грамматических знаний, но также требует формирования навыков эффективного общения с представителями различных культур. В ходе исследования были рассмотрены структурные компоненты межкультурной компетенции, роль коммуникативного подхода, использования аутентичных материалов, интерактивных методов и информационно-коммуникационных технологий в ее развитии. Кроме того, были изучены актуальные вопросы внедрения межкультурного подхода в процесс преподавания английского языка в системе высшего образования Узбекистана.

**Ключевые слова:** межкультурная компетенция, обучение английскому языку, коммуникативный подход, педагогические условия, высшее образование, аутентичные материалы, интерактивные методы, методика преподавания иностранного языка, коммуникативная компетенция, межкультурное общение.

## KIRISH

Globalashuv jarayonining jadallashuvi natijasida xorijiy tillarni o'qitish tizimida yangi pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro kommunikatsiya vositasiga aylanishi uni o'qitish metodikasida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish masalasini dolzarb qilib qo'ydi<sup>[1]</sup>.



Hozirgi davrda talabalardan nafaqat til birliklarini bilish, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish, ularning qadriyatlarini va kommunikativ xulq-atvorini tushunish ham talab qilinmoqda <sup>[2]</sup>.

Yevropa Kengashining "Common European Framework of Reference for Languages" hujjatida til o'rganish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan <sup>[3]</sup>. Ushbu kompetensiya shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro hurmat va tolerantlik asosida muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Byramning ta'kidlashicha, madaniyatlararo kompetensiya til, madaniyat va kommunikativ tajribaning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi <sup>[4]</sup>.

O'zbekiston Respublikasida ham xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentning xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga oid qarorlari oliy ta'lim tizimida kommunikativ va madaniyatlararo yondashuvni keng joriy etishni talab qilmoqda <sup>[5]</sup>. Shu sababli ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Madaniyatlararo kompetensiya zamonaviy xorijiy til ta'limi nazariyasi va metodikasida muhim o'rin egalagan tushunchalardan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi bir qator ilmiy yondashuvlar bilan bog'liqdir. Ushbu kompetensiyaning ilmiy asoslari asosan kommunikativ til o'qitish paradigmasi kengayishi jarayonida shakllanib, tilni faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida o'rganish zaruriyatini asoslab berdi.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatlararo kompetensiya turlicha talqin qilinadi. Dastlabki yondashuvlarda u asosan til o'rganuvchining boshqa madaniyatga oid bilimlari majmui sifatida qaralgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda bu tushuncha yanada kengayib, shaxsning munosabati, qadriyatlarini va kommunikativ xulq-atvorini ham qamrab oluvchi kompleks kompetensiya sifatida e'tirof etila boshlandi. Shu nuqtayi nazardan, Byram tomonidan ishlab chiqilgan model eng muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, madaniyatlararo kompetensiya bilim, ko'nikma, munosabat hamda tanqidiy madaniy ong kabi tarkibiy komponentlardan tashkil topgan yaxlit tizimdir <sup>[4]</sup>.

Deardorffning tadqiqotlarida esa madaniyatlararo kompetensiya statik natija emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi dinamik jarayon sifatida talqin etiladi. Muallif ushbu kompetensiyaning shakllanishida ochiqlik, hurmat, moslashuvchanlik va empatiya kabi shaxsiy-psixologik sifatlarning muhimligini alohida ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv madaniyatlararo kompetensiyani faqat bilimga asoslangan emas, balki shaxsiy tajriba va ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali rivojlanadigan hodisa sifatida ko'rsatadi <sup>[12]</sup>.

Yevropa Kengashining CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) hujjatlarida til o'rganish jarayonida sotsiomadaniy kompetensiyani rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatga ko'ra, tilni o'zlashtirish jarayoni faqat grammatik va leksik bilimlar bilan cheklanmasdan, balki madaniy kontekstni tushunish va turli ijtimoiy vaziyatlarda mos kommunikativ strategiyalarni qo'llashni ham o'z ichiga oladi <sup>[3]</sup>. Bu esa madaniyatlararo yondashuvning ta'lim tizimidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Kramschning ilmiy qarashlarida til va madaniyatning ajralmasligi alohida urg'u bilan ko'rsatib o'tiladi. Uning fikricha, til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniy identitetni ifodalovchi muhim omildir. Shu sababli tilni kontekstdan ajratgan holda o'qitish kutilgan samarani bermaydi, aksincha, talabalarda madaniy tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin <sup>[9]</sup>.

Kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya konsepsiyasiga borib taqaladi. Keyinchalik Richards va Rodgers ushbu g'oyani metodik jihatdan rivojlantirib, uni real kommunikativ faoliyatga asoslangan ta'lim modeli sifatida shakllantirgan. Ushbu yondashuv til o'qitish jarayonida madaniy komponentni integratsiya qilish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi <sup>[6]</sup>.

Shuningdek, interfaol ta'lim yondashuvlari ham madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Brown va boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra, guruhli va hamkorlikka asoslangan metodlar talabalarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy moslashuv ko'nikmalarini ham rivojlantiradi <sup>[10]</sup>.

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi ham madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Warschauerning tadqiqotlariga ko'ra, raqamli platformalar va onlayn kommunikatsiya vositalari talabalarni global madaniy muhitga yaqinlashtirib, real muloqot tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi <sup>[11]</sup>.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo kompetensiya zamonaviy til ta'limining ajralmas komponenti bo'lib, u turli nazariy yondashuvlarning integratsiyasi asosida rivojlangan murakkab pedagogik kategoriya hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xorijiy va mahalliy olimlarning madaniyatlararo kommunikatsiya hamda xorijiy til o'qitish metodikasiga oid ilmiy ishlari tashkil etdi [6].

Tadqiqot jarayonida madaniyatlararo kompetensiyaning tarkibiy qismlari, ularni rivojlantirish omillari hamda oliy ta'lim tizimida ingliz tili darslarini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, CEFR talablari, kommunikativ yondashuv tamoyillari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilindi [3].

Metodologik yondashuv sifatida kompetensiyaviy yondashuv tanlandi. Ushbu yondashuv talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olishiga asoslanadi [7]. Shu bilan birga, madaniyatlararo yondashuv asosida ta'lim jarayonida tolerantlik, empatiya va milliy madaniyatni anglash kabi jihatlarga ham e'tibor qaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar asosida samarali amalga oshiriladi:

*Birinchidan*, kommunikativ muhitni yaratish muhim omil hisoblanadi. Talabalar tilni faqat nazariy jihatdan emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash orqali o'zlashtiradilar [8]. Ingliz tilidagi muloqot mashqlari, munozaralar va debatlar madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

*Ikkinchidan*, autentik materiallardan foydalanish samarali natija beradi. Gazeta maqolalari, videolar, podkastlar va badiiy asarlar talabalarga ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarning turmush tarzi, qadriyatlarini va madaniy xususiyatlarini tushunishga yordam beradi [9].

*Uchinchidan*, interfaol metodlarning qo'llanilishi madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. "Case-study", "Role-play", "Brainstorming" kabi metodlar talabalarni mustaqil fikrlash va turli madaniy nuqtayi nazarlarni tahlil qilishga o'rgatadi [10].

*To'rtinchidan*, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning xalqaro kommunikativ tajribasini kengaytiradi. Xalqaro onlayn platformalar va videokonferensiyalar orqali talabalar boshqa davlat vakillari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar [11].

*Beshinchidan*, o'qituvchining madaniyatlararo kompetensiyasi yuqori bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi nafaqat til bilimiga, balki turli madaniyatlar haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi kerak [12].

Madaniyatlararo kompetensiya bugungi kunda xorijiy til ta'limining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro aloqa vositasiga aylanishi natijasida turli madaniyat vakillari bilan samarali kommunikatsiya olib borish ehtiyoji keskin ortdi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham shakllantirish muhim vazifaga aylandi [1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tilni mukammal bilish har doim ham muvaffaqiyatli kommunikatsiyani ta'minlay olmaydi. Chunki kommunikatsiya jarayonida madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, mentalitet va ijtimoiy me'yorlar ham muhim rol o'ynaydi [2].

Ilmiy manbalarda madaniyatlararo kompetensiyaning mazmuni turlicha talqin qilinadi. Byramning fikricha, madaniyatlararo kompetensiya shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro tushunish va hurmat asosida muloqot qila olish qobiliyatidir [4]. Ushbu kompetensiya tarkibiga bilim, ko'nikma, munosabat va madaniy xabar-dorlik kiradi.

Deardorff esa madaniyatlararo kompetensiyani ochiqlik, tolerantlik va empatiya bilan bog'laydi [12]. Demak, zamonaviy ingliz tili ta'limi faqat grammatik bilimlarni berish bilan cheklanmasligi, balki talabalarni madaniy jihatdan ham tayyorlashi lozim.

Oliy ta'lim tizimida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning asosiy pedagogik shartlaridan biri kommunikativ yondashuvni samarali qo'llash hisoblanadi. Kommunikativ yondashuv tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashga asoslanadi [6]. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda talabalar muloqot jarayonida til birliklarini tabiiy ravishda o'zlashtiradilar.

Ayniqsa, juftlik va guruhli ishlash metodlari talabalarning fikr almashish, bahs-munozara yuritish va boshqa madaniyat vakillarining qarashlarini tushunishiga yordam beradi. Richards va Rodgersning ta'kidlashicha, kommunikativ metod til o'rganishni sun'iy emas, balki tabiiy kommunikativ faoliyat sifatida tashkil etadi [8].

Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda autentik materiallarning ahamiyati juda katta. Autentik materiallar deganda asl kommunikativ muhitda yaratilgan matnlar, audio va video materiallar tushuniladi [9]. Bunday materiallar talabalarga tilni real kontekstda o'rganish imkonini beradi. Masalan, ingliz tilidagi filmlar,



yangiliklar dasturlari, intervyular yoki podkastlar orqali talabalar ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarning nutq madaniyati, hazil-mutoyiba uslubi, kundalik hayoti va qadriyatlari bilan tanishadilar. Kramshning ta'kidlashicha, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilni madaniy kontekstdan ajratgan holda o'qitish samarali natija bermaydi<sup>[9]</sup>.

Shuningdek, interfaol metodlarning qo'llanilishi ham madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. "Role-play", "Case-study", "Debate", "Simulation" kabi metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ularda empatiya ko'nikmalarini shakllantiradi<sup>[10]</sup>. Masalan, "Role-play" metodida talabalar turli millat vakillari rolini bajarish orqali ularning nuqtayi nazarini tushunishga harakat qiladilar. Bu esa stereotiplarni kamaytirishga va tolerantlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Brownning fikriga ko'ra, interfaol metodlar talabalarning tilni faol qo'llashiga imkon yaratadi va o'quv motivatsiyasini oshiradi<sup>[10]</sup>.

Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni ham tobora ortib bormoqda. Internet resurslari va raqamli platformalar orqali talabalar xalqaro kommunikativ muhitga kirish imkoniga ega bo'lmoqdalar<sup>[11]</sup>. Masalan, Zoom yoki Google Meet platformalari orqali xorijiy talabalar bilan tashkil etiladigan onlayn muloqotlar talabalarning madaniyatlararo tajribasini boyitadi. Moodle, Edmodo va Google Classroom kabi platformalar esa ingliz tilini o'qitishda multimediyalar materiallaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Warschauerning ta'kidlashicha, texnologiyalar til o'rganish jarayonini yanada interaktiv va kommunikativ qiladi<sup>[11]</sup>.

Oliy ta'lim muassasalarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy mahorati ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagog nafaqat tilni mukammal bilishi, balki turli madaniyatlar haqida ham yetarli bilimga ega bo'lishi kerak<sup>[12]</sup>. O'qituvchi dars jarayonida talabalarda tolerantlik, ochiqlik va boshqa madaniyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantira olishi lozim. Shu bilan birga, o'qituvchi madaniyatlararo ziddiyatlarning oldini olish va stereotiplarni bartaraf etishda ham muhim rol o'ynaydi. Deardorff tadqiqotlarida o'qituvchining madaniy xabardorligi talabalarning kommunikativ muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qilishi qayd etilgan<sup>[12]</sup>.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitishda milliy va xorijiy madaniyatning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba faqat ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarning madaniyatini emas, balki o'z milliy qadriyatlarini ham ingliz tilida ifoda eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak<sup>[7]</sup>. Bu esa madaniyatlararo muloqotda tenglik va o'zaro hurmatni ta'minlaydi. Shu sababli ingliz tili darslarida O'zbekiston tarixi, urf-odatlar, milliy an'analari haqida ingliz tilida suhbatlar tashkil etish foydali hisoblanadi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur. CEFR tizimida til kompetensiyasi bilan bir qatorda sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish ham asosiy maqsad sifatida belgilangan<sup>[3]</sup>. Shu bois o'quv dasturlarida madaniyatlararo kommunikatsiyaga oid mavzular sonini ko'paytirish, autentik materiallar ulushini oshirish va talabalarni xalqaro loyihalarda ishtirok ettirish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar xorijiy tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lganida, ularning motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi<sup>[8]</sup>. Ayniqsa, xalqaro almashinuv dasturlari, akademik mobillik va xorijiy universitetlar bilan hamkorlik loyihalari talabalar madaniyatlararo kompetensiyasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday tajriba orqali talabalar boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilish jarayonida o'zlarining kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda psixologik omillar ham muhim rol o'ynaydi. Talabada kommunikativ ishonch, ochiqlik va stressga chidamlilik bo'lmasa, samarali muloqot amalga oshmaydi<sup>[2]</sup>. Shu sababli dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish muhim hisoblanadi. Pedagog talabalarni erkin fikr bildirishga rag'batlantirishi, ularning xatolariga tolerant yondashishi kerak.

Madaniyatlararo kompetensiyani shakllanishi uzoq muddatli va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon birgina dars bilan emas, balki uzluksiz kommunikativ tajriba asosida rivojlanadi<sup>[4]</sup>. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda barcha ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash muhimdir.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida darsliklar yaratish va o'qituvchilarning malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda<sup>[5]</sup>. Biroq ayrim oliy ta'lim muassasalarida madaniyatlararo yondashuv yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Ayrim hollarda darslar faqat grammatik qoidalarga asoslangan holda tashkil etiladi. Natijada talabalar real kommunikativ vaziyatlarda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: autentik materiallardan keng foydalanish, kommunikativ va interfaol metodlarni qo'llash, xalqaro hamkorlik loyihalarini rivojlantirish, o'qituvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini oshirish hamda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol integratsiya qilish.

Umuman olganda, madaniyatlararo kompetensiya zamonaviy ingliz tili ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi. U talabalarni nafaqat xorijiy tilda muloqot qilishga, balki global jamiyatda samarali faoliyat yuritishga ham tayyorlaydi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarini tashkil etishda madaniyatlararo yondashuvning pedagogik imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kommunikativ muhit yaratish, autentik materiallardan foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda o'qituvchining professional kompetensiyasi ushbu jarayonning asosiy pedagogik shart-sharoitlari hisoblanadi.

Madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlanishi talabalarning xalqaro kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga xizmat qiladi. Shu sababli ingliz tili ta'limida madaniyat va til integratsiyasiga asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov J. "Chet til o'qitish metodikasi". - Toshkent: O'qituvchi, 2012. - 145-152-betlar.
2. Safarova R. "Xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv". - Toshkent, 2019. - 67-74-betlar.
3. Council of Europe. "Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment". - Cambridge University Press, 2020. - 103-115-betlar.
4. Byram M. "Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence". - Multilingual Matters, 1997. - 34-48-betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni o'rganishni rivojlantirishga oid qarori. - Toshkent, 2021. - 2-6-betlar.
6. Пассов Е.И. "Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению". - Москва: Просвещение, 1991. - 55-63-betlar.
7. Xudoyberganova M. "Kompetensiyaviy yondashuv asosida xorijiy til o'qitish". - Toshkent, 2020. - 88-96-betlar.
8. Richards J., Rodgers T. "Approaches and Methods in Language Teaching". - Cambridge University Press, 2014. - 90-102-betlar.
9. Kramersch C. "Language and Culture". - Oxford University Press, 1998. - 23-39-betlar.
10. Brown H.D. "Principles of Language Learning and Teaching". - Pearson Education, 2007. - 211-225-betlar.
11. Warschauer M. "Technology and Social Inclusion". - MIT Press, 2003. - 118-130-betlar.
12. Deardorff D.K. "The Identification and Assessment of Intercultural Competence". - Journal of Studies in International Education, 2006. - 241-266-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.